

Date: 29th January-2026

MULK DAXLSIZLIGI

To'rayeva Diloromxon Akramxonovna

Namangan davlat universiteti

Yurisprudensiya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent Akayeva Marapat Abduxolikovna

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Mulk daxlsizligi — bu mulkdorning o'z mol-mulkidan qonun doirasida egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqining har qanday noqonuniy aralashuvdan himoya qilinishidir. Ushbu daxlsizlik mulkni tortib olish, cheklash yoki unga zarar yetkazishni faqat qonunda ko'zda tutilgan hollarda, qat'iy tartibda va adolatli kompensatsiya asosidagina amalga oshirish mumkinligini anglatadi.

Kalit so'zlar: Mulk, daxlsizlik, kafolat, davlat, konstitutsiya, qonunlar, obyektlar, mehnat, muhofaza, sud-huquq tizimi, biznes, iqtisod, investitsiya.

Аннотация: В Республике Узбекистан всем формам собственности гарантированы равные права и правовая защита. Неприкосновенность собственности – это защита права собственника владеть, пользоваться и распоряжаться своей собственностью в рамках закона от любого незаконного вмешательства. Эта неприкосновенность означает, что собственность может быть изъята, ограничена или повреждена только в случаях, предусмотренных законом, в строгом порядке и на основе справедливой компенсации.

Ключевые слова: Собственность, неприкосновенность, гарантия, государство, конституция, законы, объекты, труд, защита, судебная система, бизнес, экономика, инвестиции.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgust kuni o'tkazilgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini yaratish, ushbu huquqlarni cheklayotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot stragiyasi bo'yicha Farmonda Yangi O'zbekiston sharoitida mulk daxlsizligi belgilanib, bu mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqich hisoblanadi. Ushbu farmon 1991 yilga qabul qilingan Mulk to'g'risidagi qonun normalarini mustahkamlaydi. Qonunda mulkiy huquq masalasi mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, qonun

1. O'zbekiston Respublikasida mulkiy huquq tan olinadi va qonun bilan muhofaza etiladi.

2. Mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.



Date: 29th January-2026

Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkin.

3. Mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o'zi haqlidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda, mulkdorning zimmasiga boshqa shaxslarning uning mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yish vazifasi yuklanishi mumkin.

4. Mulkdor O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o'ziga tegishli mulkiy huquqni amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalanish to'g'risida ular bilan shartnoma tuzishga haqlidir.

Fuqaroning mehnatidan foydalanishga asos bo'lgan mulkning qay shaklda ekanligidan qat'iy nazar, fuqaro O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va kafolatlar bilan ta'minlanadi.

5. Mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, jismoniy, yuridik shaxslarning va davlatning huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.

Asosiy qonunimizda mulk daxlsizligi demokratik huquqiy davlatning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri ekanligi belgilab qo'yilgan. Mulk munosabatlarining barqarorligi, tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, fuqarolarning iqtisodiy mustaqilligi aynan mulk huquqining ishonchli himoyasi bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida mulk daxlsizligi konstitutsiyaviy darajada kafolatlanib, fuqarolar va yuridik shaxslarning mol-mulkini noqonuniy tortibolishdan, talon-toroj qilishdan, cheklashdan himoya qilish davlatning muhim vazifasidir. Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

Mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo'lishiga qarab mulk huquqini, mol mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish xususiyatlari qonunchilik bilan belgilab qo'yiladi. Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlaridir. Subyektiv huquqlar esa davlat himoyasidadir. Mol-mulk mulk huquqi asosidabir shaxsга yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo'lishi mumkin. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas. Sud-huquq tizimidagi islohotlar, jumladan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga shunday normalarning joriy e'tilishi tufayli mulk huquqi kafolatlari, sudlarda ularning himoyasi va daxlsizligini ta'minlash mustahkamlandi. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum -joyning hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va



Date: 29th January-2026

tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanishi belgilandi. Mulk huquqining obyektlari:

Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellectual mulk obyektlari mulk bo'lishi mumkin. Ixtirolar, kashfiyotlar, fan, adabiyot, san'at asarlari, axborot, ilmiy g'oyalar, texnik ishlanmalar va aqliy ijodning boshqa obyektlarini yaratish hamda ulardan foydalanish xususidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o'zi haqlidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda, mulkdorning zimmasiga boshqa shaxslarning uning mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yish vazifasi yuklanishi mumkin.

Mulkdor O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan shartlar va doira chegarasida o'ziga tegishli mulkiy huquqni amalga oshirish paytida fuqarolarning mehnatidan foydalanish to'g'risida ular bilan shartnoma tuzishga haqlidir. Fuqaroning mehnatidan foydalanishga asos bo'lgan mulkning qay shaklda ekanligidan qat'i nazar, fuqaro O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar va kafolatlar bilan ta'minlanadi. Mulkiy huquqning amalga oshirilishi atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, jismoniy, yuridik shaxslarning va davlatning huquqlarini buzmasligi hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak. Mulk daxlsizligi har kimning o'z boyliklariga egalik qilish, foydalanish va boshqarish huquqiga ega ekanidir. Bu huquq odamlarga o'z mulkidan qanday foydalanishni erkin tanlash imkonini beradi va qonun oldida tenglikni yaratadi. Mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo'lishiga qarab mulk huquqini, mol mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish xususiyatlari qonunchilik bilan belgilab qo'yiladi.

Xulosa, mulk daxlsizligi — har qanday demokratik davlatning iqtisodiy va huquqiy poydevorini tashkil etuvchi fundamental tamoyildir. Bu tamoyil fuqarolarning o'z mehnati bilan orttirgan boyligini himoya qiladi, tadbirkorlik muhitini barqarorlashtiradi hamda jamiyatda ijtimoiy ishonch va adolatni mustahkamlaydi. Mulk huquqi daxlsiz bo'lmagan jamiyatda iqtisodiy tashabbus, investitsiya muhiti, innovatsion faoliyat va bozor munosabatlari rivojlanishi imkonsizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mulk daxlsizligining kafolatlanishi davlat hokimiyatining har qanday bo'g'inida mulkchilikka bo'lgan hurmat va mas'uliyatni belgilab beradi. Xususi mulkni himoya qilishning kuchli davlat kafolati fuqarolarning o'z iqtisodiy manfaatlarini erkin amalga oshirishiga, mulkni



Date: 29th January-2026

yaratish, ko'paytirish va ulardan foyda olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bugungi kunda mulk daxlsizligi faqat huquqiy kategoriya emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning real omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Adolatli va shaffof sud tizimi, mulkni tortib olishning qat'iy qonuniy me'yorlari, davlat organlari tomonidan asossiz aralashuvning taqiqlanishi mulkdorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratadi. Bu esa iqtisodiy faollik, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda fuqarolarning mulk yaratish motivatsiyasini oshiradi. Mulk daxlsizligi shuningdek davlatning inson huquqlariga bo'lgan hurmatini ifodalaydi. Chunki mol-mulkni himoya qilish shaxsning iqtisodiy mustaqilligini, erkinligini va sha'nini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Fuqarolarning o'z mulkidan mahrum bo'lmaslik huquqiga ega bo'lishi demokratik tuzumning asosiy belgilaridan biridir. Shu munosabat bilan, keyingi yillarda O'zbekistonda mulk huquqini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar– sud-huquq tizimini mustahkamlash, raqamli kadastr tizimini rivojlantirish, noqonuniy buzishlarning oldini olish, mansabdor shaxslar javobgarligini kuchaytirish– mulk daxlsizligining amalda ta'minlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mulk daxlsizligi jamiyat taraqqiyotining zaruriy omili bo'lib, u nafaqat fuqarolarning shaxsiy manfaatlarini, balki davlatning iqtisodiy xavfsizligini, barqarorligini va rivojlanish strategiyasini ham belgilab beradi. Mulk huquqi qo'riqlangan jamiyatda iqtisodiyot barqaror, fuqarolar erkin, investitsiyalar esa ishonchli muhitga ega bo'ladi. Shu sababli mulk daxlsizligini yanada mustahkamlash, uning amaliy kafolatlarini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/acts/-111466>
3. O'zbekiston Respublikasi mulk to'g'risidagi qonuni. <https://lex.uz/acts/-111466>